

15-iyun, 2026-yil

**SURXONDARYO TAQIR-O‘TLOQI TUPROQLARI SHAROITIDA
ISSIQXONADA POMIDORNI AZOTLI OZIQLANTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI**

Zayirova Donaxol Mamataliyevna

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi Surxondaryo viloyatining taqir-o‘tloqi tuproqlari sharoitida issiqxonada pomidor yetishtirishda azotli oziqlantirish tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslari yoritilgan. Azotning o‘simlik o‘sishi va rivojlanishidagi fiziologik roli, uni tomchilatib sug‘orish tizimi orqali qo‘llashning afzalliklari hamda mahalliy tuproq-iqlim sharoitida maqbul oziqlantirish tizimini ishlab chiqish zarurati tahlil qilingan.

Annotation. This thesis highlights the scientific basis for improving the nitrogen fertilization system for greenhouse tomato cultivation under the takyr-meadow soil conditions of the Surkhondaryo region. The physiological role of nitrogen in plant growth and development, the advantages of its application through drip irrigation (fertigation), and the necessity of developing an optimal fertilization system adapted to local soil and climatic conditions are analyzed.

Kalit so‘zlar: pomidor, azotli o‘g‘it, fertigasiyalash, tomchilatib sug‘orish, taqir-o‘tloqi tuproq, hosildorlik, meva sifati.

Keywords: tomato, nitrogen fertilizer, fertigation, drip irrigation, takyr-meadow soil, yield, fruit quality.

Pomidor (*Solanum lycopersicum* L.) respublikamizda yetishtiriladigan asosiy sabzavot ekinlaridan biri bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda issiqxona maydonlarining kengayishi yuqori hosildor va sifatli mahsulot yetishtirishning ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Bunda mineral oziqlantirish, ayniqsa azotli o‘g‘itlarni qo‘llash tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Azot o‘simlik organizmida oqsillar, nuklein kislotalar, fermentlar va xlorofillning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli uning yetarli miqdorda o‘zlashtirilishi barg apparatining rivojlanishi, fotosintez jadalligi, vegetativ va generativ organlarning shakllanishi hamda hosildorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq azotning me‘yoridan ortiq qo‘llanishi vegetativ o‘sishni kuchaytirib, mevalarning pishishini kechiktirishi, nitratlar to‘planishini oshirishi va o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Surxondaryo viloyatining taqir-o‘tloqi tuproqlari fizik-kimyoviy xususiyatlari bilan boshqa hududlar tuproqlaridan farqlanadi. Yuqori harorat, kuchli bug‘lanish va sug‘orish sharoitida azotning tuproqdagi almashinuvi ham o‘ziga xos kechadi. Shu sababli boshqa hududlar uchun tavsiya etilgan oziqlantirish me‘yorlarini ushbu hudud sharoitida to‘liq

15-iyun, 2026-yil

qo‘llash har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirilgan oziqlantirish tizimini ishlab chiqish yuqori hosildorlik va o‘g‘itlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Zamonaviy issiqxonalarda tomchilatib sug‘orish tizimi orqali oziqlantirish (fertigatsiya) o‘simlikning oziq elementlariga bo‘lgan ehtiyojini rivojlanish bosqichlariga mos ravishda qondirish imkonini beradi. Bunday usulda azotli o‘g‘itlar kichik me'yorlarda, bir necha marotaba berilishi natijasida oziq moddalarning yuvilib ketishi kamayadi, ularning o‘zlashtirilish koeffitsiyenti ortadi hamda ildiz zonasida maqbul oziqlanish muhiti hosil bo‘ladi.

Pomidorning oziq elementlariga bo‘lgan talabi vegetatsiya davomida bir xil bo‘lmaydi. Ko‘chatning tutib ketishi davrida mo‘tadil azot ildiz tizimining rivojlanishini rag‘batlantirsa, intensiv o‘sish va gullash bosqichida uning ehtiyoji ortadi. Meva tugish va pishish davrida esa azot me'yori muvozanatda saqlanishi zarur. Aks holda vegetativ o‘sish kuchayib, hosil sifati pasayishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, Surxondaryo taqir-o‘tloqi tuproqlari sharoitida pomidorni oziqlantirish tizimini ilmiy asosda takomillashtirish agroekologik va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Azotli o‘g‘itlarni o‘simlikning biologik ehtiyoji va tuproqning agrokimyoviy xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llash yuqori hosildorlikka erishish, meva sifatini yaxshilash hamda mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar hudud issiqxonalarda pomidor yetishtirish texnologiyasini yanada takomillashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T.E.Ostonaqulov, V.I.Zuev, O.Q.Qodirxo‘jaev Sabzavotchilik Toshkent-2009 61-bet
2. Energo - tejamkor issiqxonalarni qurish va ulardan foydalanish bo‘yicha qo‘llanma Toshkent – 2013 20-bet